



TARBIYA FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY AXBOROT

TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

Hayitov Abrorbek Abdumalik o'g'li

JDPU, Pedagogika ta'lism yo'naliishi 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Rasulova Dilrabo Raxmatullayevna**

JDPU, Pedagogika ta'limi nazariyasi kafedra

katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarbiya fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish usullari, ularning ta'lism jarayoniga ta'siri va natijalari haqida so'z yuritiladi. Maqolada tarbiya fanini o'qitishda qo'llaniladigan zamonaviy texnologiyalar, ularning afzalliklari, shuningdek, ta'lism jarayonining samaradorligini oshirishda ularning roli tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: tarbiya, zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'lism jarayoni, o'qitish texnologiyalari, tarbiya fani.

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida ro'y berayotgan globallashuv jarayonlari, fan va texnika sohasidagi jadal o'zgarishlar jamiyat hayotining barcha jabhalariga, jumladan, ta'lism tizimiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ta'lism sohasining rivojlanishi va takomillashuvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. Zamonaviy pedagogikada axborot texnologiyalari ijtimoiy-gumanitar fanlarni, shu jumladan, tarbiya fanini o'qitishda ham keng qo'llanilmoqda. Tarbiya fani shaxsni shakllantirish, uning ma'naviy, axloqiy, estetik, jismoniy va boshqa jihatlarini rivojlantirish masalalarini o'rganadigan fan bo'lib, bu jarayonda zamonaviy axborot texnologiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalari tarbiya fanini o'qitish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish imkonini beradi, o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasini oshiradi va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi.



Zamonaviy axborot texnologiyalari bu - kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari, dasturiy ta'minot, internet, multimedia vositalari, elektron ta'lim resurslari va boshqalarni o'z ichiga oladi. Ushbu texnologiyalardan tarbiya fanini o'qitishda samarali foydalanish, o'qituvchidan maxsus tayyorgarlik va ko'nikmalarni talab etadi. Axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini yanada samarali, qiziqarli va mazmunli tashkil etish bilan birgalikda u o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga ko'tarishga, ta'lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi. Shuningdek, o'quvchilarning bilim olish jarayoniga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

ASOSIY QISM

Tarbiya – bu shaxsning ma'naviy, axloqiy, jismoniy va aqliy rivojlanishiga yo'naltirilgan maqsadli, tizimli va uzlucksiz jarayon hisoblanadi. Bu jarayon orqali insonning ijtimoiy, madaniy va axloqiy qadriyatlari shakllanadi.

Albatta, tarabiya jarayoni inson hayotida juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, u shaxsning individualligi va dunyoqarashini shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu jarayon oiladan boshlanib, maktab, jamiyat va atrof-muhitning ta'siri orqali boyitib boriladi.

Bugungi kunda yosh avldoni tarbiyalash, ularni har tomonlama barkamol shaxs qilib o'stirishda, o'quv faoliyati jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. O'quv faoliyatni tashkil etish, o'quvchilarga bilimni tez va oson qilib berishda o'qituvchida pedagogik mahorat va yuqori malakalarga ega bo'lishni talab etadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilar o'quvchilarga bilim berishda asosiy vositachi bo'lsa, ta'lim olish jarayonida esa o'quvchilar asosiy figura hisoblanadi. Bu jarayonda ta'lim maqsadiga erishish uchun fanning mazmunidan kelib chiqgan holda shuningdek o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda turli pedagogik texnologiya va metodlardan foydalilanadi.

Bugungi kunda ta'limganda samarali interfaol texnologiyalardan "Aqliy hujum", "Kichik guruhlarda ishslash", "Muammoli o'qitish", "Rolli o'yinlar" "Loyihalar", "FSMU", "Sinkveyn", "BBB" "Yumoloqlangan qor o'yini", "Klaster", "Bahsmunozara" kabi texnologiyalardan keng foydalanilmoqda.

Axborot texnologiyalarining ta'limdagi o'rni yuqori bo'lib, dars jarayonida bu texnologiyalardan foydalanishning quyidagicha afzalliklarga mavjud:

- o'quvchilarda ijodkorlikni kuchaytiradi;
- dars jarayonini samarali tashkil etish imkonini beradi;
- o'quvchilarning dars jarayoniga qiziqishi ortadi;
- o'quvchilarning dars jarayonlarida faolligini oshiradi;
- vaqt va resurslardan samarali foydalanish imkonini beradi;
- ta'lim jarayonini individuallashtirishga yordam beradi.

Shuning bilan birgalikda texnologiyalardan foydalanish o'qituvchi va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

Masalan, tarbiya darsligidan namunalar keltiradigan bo'lsak, "Vatanparvarlik tarbiyasi" mavzusini o'rganishda, ijtimoiy loyihalardan foydalansak bo'ladi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarga vatanparvarlik mavzusida ijtimoiy loyihalar tayyorlash va ularni keng jamoatchilikka taqdim etish topshiriqlarini berishi mumkin.

"Ekologik tarbiya" mavzusini o'rganishda, ma'lumotlar bazalaridan foydalanish. O'qituvchi o'quvchilarga ekologik muammolar haqidagi statistik ma'lumotlar va muammoli vaziyatlar taqdim etib, ularni tahlil qilish va yakuniy xulosalar chiqarish topshiriqlarini berishi mumkin.

"Milliy qadriyatlar" mavzusini o'rganishda virtual muzey-ekskursiyalaridan foydalanish. O'qituvchi o'quvchilarga turli muzeylarga virtual ekskursiyalar uyushtirib, ularga milliy madaniyat, san'at va tarix namunalarini ko'rsatishi, shuningdek, ularning ahamiyatini tushuntirishi mumkin.

XULOSA

Tarbiya fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim jarayonini yanada samarali va qiziqarli qilish, o'quvchilarning bilim olish

motivatsiyasini oshirish va ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari o'qituvchilarga o'quv materiallarini yangicha uslubda taqdim etish, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish va ularga mos o'qitish metodlarini tanlash imkonini beradi. Shuni ta'kidlash joizki, axborot texnologiyalaridan foydalanish, an'anaviy o'qitish metodlarini almashtirish emas, balki ularni to'ldirishi va boyitishi kerak. Fanni o'qitishda eng yaxshi natijaga erishish uchun an'anaviy va zamonaviy metodlarni birgalikda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ochilov M. "Muallim – qalb me'mori" T: "o'qituvchi" 2001.
2. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – Toshkent: "Fan", 2017.
3. Jo'rayev P.X. Pedagogik fanlarda axborot texnologiyalari – Toshkent: "Sharq" – 2019.
4. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: "O'qituvchi", 2016.
5. Mamatov D.N. Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari. – Toshkent 2019 .
- 6.Sayidaxmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar – Toshkent, 2017 .